



BADIIY MATNDA QO‘LLANAGAN TURG‘UN O‘XSHATISHLARNING TARJIMA QILISH USULLARI

Sabirov Maxtumquli Ataboyevich

O‘ZDJTU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola badiiy matnda uchraydigan frazeologik o‘xshatishlar va ularning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima xususiyatlari, frazeologik birliklarni xorijiy tilga o‘girish masalalari, o‘xshatishlar tarjimasining lingvokulturologik va lingvostilistik aspektlariga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy matn, o‘xshatish, tarjima, lingvostilistika, madaniyat, omil, asliyat matn, tarjima matni.*

Annotation: *This article deals with idiomatic similes used in literary text and their translation features from English into Uzbek, translation problems of idioms into foreign language, lingvocultural and lingvostylistic aspects of translating similes.*

Key words: *literary text, simile, translation, linguostylistics, culture, factor, source text, target text.*

Аннотация: *В статье рассматриваются фразеологическая сравнения, используемые в художественном тексте, и особенности их перевода с английского языка на узбекский язык, проблемы перевода идиом на иностранный язык, лингвокультурологические и лингвостилистические аспекты перевода сравнений.*

Ключевые слово: *художественный текст, сравнение, перевод, лингвостилистика, культура, фактор, исходный текст, целевой текст.*

O‘xshatish olamning anglashning eng muhim vositasi bo‘lib, u har bir xalq olaminining lisoniy tasvirida ifodalanadi. Bunda obyekt va predmetlar o‘zlarining amaliy faoliyatida yangilanib turadigan turli sifatlarga ko‘ra o‘rganuvchilar tomonidan qiyoslanadi. O‘xshatish keng tarqalgan umumiy ilmiy kategoriya sifatida barcha ilmiy sohalarida ham qo‘llaniladi. A.Spirkin bu borada quyidagilarni etirof etadi: “O‘xshatish - bu obyektlar orasidagi farq va o‘xshashlikni aniqlash. U tushuntirish emas, balki tushunishga yordam beradi. O‘xshatish anglashning eng muhim shakli bo‘lib, turli fanlarda, masalan, qiyosiy anatomiya, qiyosiy fiziologiya, qiyosiy tilshunoslik va boshqalarda qo‘llaniladi va keng tadqiq qilinadi” [3, 136]. O‘xshatish olamning lisoniy tasvirini yorqinroq idrok qilish uchun qo‘llanadigan eng muhim lisoniy hodisalardan xiosblanadi. O‘xshatishning olam voqeligini anglashdagi roli haqida K.D.Ushinskiy quyidagilarni takidlab o‘tadi: “o‘xshatish barcha tushuncha va fikrlar uchun asosdir. Biz olamdagi hamma narsani faqat o‘xshatish orqali bilamiz. Agar siz tashqi muhitning biron bir obyektini aniq tushunishini istasangiz, uni boshqa obyektlar bilan o‘xshash jihatlarini ajratib oling va undan obyektlar bilan o‘xshashliklarni toping” [4, 74].

Badiiy matnda o‘xshatish obraz yaratishning asosiy usuli bo‘lib, uni badiiy matnng markaziy o‘zagi sifatida qaralishi mumkin. O‘xshatish badiiy olam tasvirida



muhim o‘rinni egallaydi, chunki u badiiy vosita sifatida tilning tabiiy ekspressivligi, asar muallifiga dunyoqarash prizmasini ko‘rsatishga imkon beradi. Yozuvchining badiiy uslubida o‘xshatishning o‘rni haqida mashhur so‘z ustalari, yozuvchilar ham yozgan. Shunday qilib, M. Gorkiy o‘xshatishni fan va fantastika o‘rtasidagi juda ko‘p o‘xshashliklardan biri deb hisoblaydi: “Fan va fantastika o‘rtasida umumiy jihatlar ko‘p: har ikki holatda ham kuzatish va qiyoslash qobiliyati yetakchi rol o‘ynaydi” [2, 4]. O‘xshatish olam badiiy tasvirida muhim badiiy vositalardan xisoblanganligi uchun uning badiiy matnda qo‘llanishi, o‘xshatishni turli jihatlar badiiy asarlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishda o‘ziga xos muammolar keltirib chiqaradi.

Badiiy asarlarda qo‘llangan turg‘un o‘xshatishlarni asliyat tilidan tarjima tiliga olib o‘tishning bir qator muammo va qiyinchiliklari mavjud. Buni bir qancha omillar bilan belgilash mumkin. Birinchidan, turg‘un o‘xshatishlar odatda frazeologik birliklar xisoblanib, ular tarjima qilinishi eng qiyin bo‘lgan til birliklari tarkibiga kiradi. Ikkinchidan, asliyat matnida turg‘un o‘xshatishni xosil qilgan frazeologik birlik tarjima matnida mavjud bo‘lmasligi mumkin. Uchinchidan, badiiy asarlardagi o‘xshatishni xosil qilgan o‘xshatish etaloni asliyat va tarjima tillarida turlicha bo‘lishi mumkin. Bu esa turg‘un o‘xshatishlarning o‘ziga milliy-madaniy xususiyatga ega ekanligi hamda asliyat matnida yaratilgan o‘xshatishli birikma tarjima matnida xuddi shunday ifoda xosil qilmasligini anglatadi. To‘rtinchidan asliyat va tarjima tillari sohiblarining olamning lisoniy tasviridagi o‘zaro farq qilishi natijasida o‘xshatishli birikmani tarjima matnida yuzaga keltirish va unda kommunikativ tasirni xosil qilishda muammo yuzaga kelishi mumkin.

Tilshunoslarning fikriga ko‘ra, ibora bu o‘z tarkibidagi so‘zlarning denotativ ma‘nolari orqali iboraning ma‘nosini aniqlab bo‘lmaydigan turg‘un ifoda xisoblanadi [1, 102]. Frazeologik birliklarda konnotativ ma‘no mavjud bo‘lib, ular so‘zlarning denotative ma‘nolarida namoyon bo‘lmaydi.

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning qiyinchiligi shundaki, ular milliy-madaniy xususiyatga ega bo‘ladi va tarjimondan asliyat va tarjima madaniyati borasida yetarli bilim talab etiladi. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda tarjimon duch keladigan yana bir qiyinchilik shundan iboratki, iboralar oson anglashinilmaydi va tarjimon frazeologik birlikni tashkil qilgan so‘zlarning denotative ma‘nolari bilan ishlayveradi. Buning natijasida esa g‘aliz va noaniq tarjimalar yuzaga keladi.

ALS is like a lit candle: it melts your nerves and leaves your body a pile of wax. Often, it begins with the legs and works its way up. You lose control of your thigh muscles, so that you cannot support yourself standing. You lose control of your trunk muscles, so that you cannot sit up straight.

Mazkur matn ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilingan: ALS yonayotgan shamga o‘xshaydi: asab tolalaringizni eritib, tanangizni bir uyum mum holiga keltiradi. Ko‘pincha, u ishni oyoqlardan boshlaydi va sekin-asta yuqorilab boradi. Avvaliga son mushaklaringiz o‘zingizga bo‘ysunmay qo‘yadi va tik turish qobiliyatidan mahrum bo‘lasiz. Keyin esa butun tana mushaklaringiz nazoratini yo‘qotasiz va o‘tirish baxtidan ham mosuvo bo‘lasiz.

Asliyat matnida “ALS is like a lit candle” birikmasida o‘xshatish stilistik usuli qo‘llanagn bo‘lib, o‘zbek tiliga “ALS yonayotgan shamga o‘xshaydi” tarzida tarjima



qilingan. Asliytdagi o‘xshatishli ma’no tarjima tiliga ham olib o‘tilgan. Bu holatda tarjimon o‘xshatishni tarjima qilishning birinchi strategiyasi, ya’ni o‘xshatishni so‘zma-so‘z tarjima qilish strategiyasidan foydalangan. Ushbu tarjimada so‘zma-so‘z tarjima strategiyasidan foydalanishning samarasi shundaki, o‘xshatishli ifoda umuminsoniy tushunchalarga asoslanadi. Chunki shamning asta-sekinlik bilan erib borishi xar bir millat tushunchasi va olamning lisoniy tasvirida bir xillik kasb etadi. Bu yerda tarjimadagi asosiy g‘alizlik ayrim insonlarda yuz beradigan nevrologik kasallikni o‘zbek tiliga tushunarli qilib o‘g‘irilmaganligida. Kasallik nomini tog‘ridan-to‘g‘ri tarjima matniga olib o‘tish har doim ham samara beravermaydi. Mazkur matnda “ALS” tibbiyot termin birikmasidan keyin uning organizmdagi faoliyati borasida ma’lumot bor. Shuning uchun undan keyingi matnni o‘qigan oq‘uvchi ALS nima ekanligini tushunish mumkin. Biroq, bu kabi axboriy ma’lumotlar asarda mavjud bo‘lmasa u o‘quvchi uchun g‘aliz va tushunarsiz tarjima xosil qilishi mumkin. ALS termin birikmasining o‘zbekchaga to‘liq tarjima qilinmaganiga etibor qaratishimizning yana bir muhim jihati shundaki, ALS bu ifodada o‘xshatish subyekti xisoblanadi. Agar o‘xshatishning tarkibiy tuzilmalaridan, ya’ni o‘xshatish subyekti, obyekt, shakli va holatidan biri tarjima tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri olib o‘tilsa yoki tarjimada tushirib qoldirilsa, o‘xshatishning ifoda vositasiga tasir qilishi mumkin. Shuning uchun ushbu tibbiyot terminini ekvivalentlik tarjima usulidan foydalangan holda “ATF - Asab tolalarining falajlanishi” deb tarjima qilishni tavsiya qilamiz. Ushbu variant tarjimada birinchi bor qo‘llanganda shu ko‘rinishda beriladi, ikkinchi va keyingi holatlarda qisqartma shaklida berilsa ham bo‘laveradi.

Odatda turg‘un o‘xshatishlar olamda sodir bo‘ladigan ijtimoiy holatlarni yorqinroq tasvirlash uchun ishlatiladi. Yozuvchi ular orqali ifodalamoqchi bo‘lgan tasvirni yorqinroq qilishga muvassar bo‘ladi. Quyidagi matnda ham shuni kuzatishimiz mumkin: “A tension of opposites, like a pull on a rubber band. And most of us live somewhere in the middle”. Mazkur matnning “A tension of opposites, like a pull on a rubber band” gapida o‘xshatishli turg‘un birikma qo‘llangan bo‘lib, hayotimiz doimo ziddiyatlardan iboratligi, ular bir kuchayib, bir kamayib borishini rezinali bog‘ishni tortilganda cho‘zilishi va keyin yana o‘z xoliga qaytishiga o‘xshilmoqda.

Xayotning kurashlardan iborat ekanligini aniq obyektlar orqali ifodalash natijasida ushbu turg‘un o‘xshatish yuzaga kelmoqda. Turg‘un o‘xshatishning asosini ximatli so‘z tashkil qilmoqda. Tarjimon ushbu gapni quyidagicha tarjima qilgan: Qarama-qarshiliklar tortishuvi rezina bog‘ichni tarang tortganingdagi holatga o‘xshaydi. Ko‘pchiligimiz esa shu bog‘ichning o‘rtasida yashaymiz.

Mazkur matnning o‘zbekcha tarjimasida ayrim g‘alizliklar uchraydi. Ulardan asosiysi ingliz tilidagi o‘xshatishli ifoda o‘zbek tiliga o‘z ma’nosi saqlanmagan holda olib o‘tilgan. O‘xshatish ifodalagan ma’no o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarsiz xisoblanadi. Bu esa badiiy tarjimaning kommunikativlik funksiyasini yo‘qolishiga olib keladi. Rezina bog‘ichining tarang tortilgandagi holati o‘zbek o‘quvchisi uchun hech qanday qo‘shimcha yorqin ma’no ifodalamaydi va u hayotda sodir bo‘ladigan ziddiyatlar, kurashlarga aloqasi ham sezilmaydi. Bu esa o‘xshatishning ma’nosi tarjima tiliga olib o‘tilmaganligini ifodalaydi. Bundan tashqari “A tension of

opposites” birikmasini “Qarama-qarshiliklar tortishuvi” deb berilishi ham o‘zbek tili uchun g‘aliz deb xisoblaymiz. Shuningdek, bu yerda ma’no tavnologiyasi xosil bo‘lgan. Odatda qarama-qarshilik, tortishuv bir-biriga yaqin holatda qo‘llanadi. Bundan tashqari ushbu turg‘un o‘xshatish o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyat kasb etiganligi bois, uning tarjimasida hama ana shunday madaniylik ask etishi lozim. Shuning uchun mazkur gapni o‘zbek tiliga ikkinchi strategiya, ya’ni asliyat tilidagi o‘xshatishni tarjima tilidagi o‘xshatishga aylantirish strategiyasidan foydalangan holda “Xayot uchun kurash o‘nqir-cho‘nqir yo‘lda yurishga o‘xshaydi. Ko‘pchiligimiz esa shu yo‘lning o‘rtasida yashaymiz” tarzida tarjima qilinsa, asliyatdagi o‘xshatishli ifoda tarjima tiliga ham olib o‘tilgan bo‘ladi. Bu yerda “A tension of opposites” o‘xshatish subyekti “hayot uchun kursh”ga, “like” o‘xshatish shakli “o‘xshaydi”ga, “a pull” o‘xshatish holati “yurish”ga va “on a rubber band” o‘xshatish obyekti “o‘nqir-cho‘nqir yo‘llarda”ga almashtirimoqda.

Xulosa sifatida aytishimiz, mumkinki, o‘xshatish qo‘llangan badiiy matnni asliyat tilidan tarjima tiliga olib o‘tishda o‘xshatishli birikmaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlarini namoyon etish tarjimonning bosh vazifasi xisoblanadi. Asliyat va tarjima tillarida o‘xshatishlarning o‘ziga xos xususiyatlari borasidagi farqlar ikki xalqning olamni idrok etishdagi farqli jihatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Dickins, J., Hervey, S., & Higgins, I. Thinking Arabic translation: A course in translation method: Arabic to English. New York: Routledge. 2002. – 237 p.
2. Горький А.М. О литературе. Казань: Тат. книжн. изд-во, 1951. – 264 с.
3. Спиркин А.Г. Философия: учебник. 2 издание. Москва: Гардарики. 2006. – 454 с.
4. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. Москва, 1953; Т. – 436 с.